

# YEVROPA DAVLATLARI VA O'ZBEK TA'LIMI HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR

**JDPI o'qituvchisi Mamirov Ozod**

**JDPI talabasi Murotova Ismigul**

Barchaga ma'lumki hozirgi ta'lim jarayonida o'quvchi ham obyekt ham subyekt bo'lmog'I maqsadga muvofiq deb ko'rilmog'ida. Ya'ni bunda dars jarayonlarini noan'anaviy usullar orqali tashkil etish nazarda tutiladi. Noana'anaviy usullar orqali ta'lim samaradorligini yanada oshirish mumkin. O'quvchi dars jarayonida ham obyekt ham subyekt bo'lib ishtirok etsa, o'z-o'zidan mustaqil fikrlash qobiliyatini oshiradi. Adabiyot darslariga qo'yilgan eng muhim talablardan biri o'quvchilarni mustaqil fikrga ega barkamol shaxs sifatida o'qitishdir.

Dars jarayonida o'qituvchi o'z bilim va ko'nikmalarini o'quvchilarga yetkazishda turli metod-usullardan foydalansa, dars jarayoni qiziqarli o'z navbatida samarali bo'ladi. Bu o'rinda adabiyot o'qitish metodlarini xorijdagi o'qitish metodlari bilan solishtirish, o'z o'rnida qo'llay olish muhim.

Xorijdagi pedagoglar bugungi kunda o'qitishda o'zgacha yondashuvga asosan pedagogik jarayonni tashkil etishmog'ida xususan ingliz tilini o'qitishda pedagoglar quyidagi metod va usullarni ilgari surishmog'dalar. Ushbu metodlar kam vaqt sarflab ko'proq natijaga erishishni ta'minlaydi.

Masalan "Creative problem solving) metodi bu metodni qo'llash uchun hikoyaning boshlanishi o'qib beriladi, qanday yakun topishi o'quvchilar, va talabalar hukmiga havola etiladi.

Bu metodni adabiyot o'qitishda qo'llay olish muhim ahamiyat kasb etadi. Soddalikdan murakkabga qarab harakat qilishni talab etadi. O'qituvchi dars jarayonida mohirona harakat qilib, o'quvchilarni jalb qilgan holda ushbu metodni amalga oshirishi kerak. Agarda o'quvchilarning ko'p qismi dars jarayonida faol bo'lmasa, metod o'z samarasini ko'rsatmaydi. Xo'sh, bu metodni qaysi mavzularda qo'llay olish mumkin degan savol tug'iladi?. Agarda o'qituvchi o'z kasbining ustasi bo'lsa, barcha mavzularda qo'llay olsa bo'ladi. Chunki yuqoridagi metod aynan o'quvchilarning mustaqil fikrlashga undaydi.

Masalan 7-sinf adabiyot darsligidagi Abdulla Qahhor va uning “O’g’ri” hikoyasi mavzusini oladigan bo’lsak, o’quvchilar hikoya bilan tanishgan holda kerakli xulosani chiqaradilar. O’quvchilarda hikoya haqida tasavvur mavjud. Endi ular munosabat bildira oladilar. Ba’zan hikoyaning tugallanishi o’quvchilar istaganday bo’lib chiqmasligi mumkin. Qaysidir o’quvchi norozi bo’ladi. Shu paytda o’qituvchi yuqoridagi metodga murojaat qilgan holda, yangi hikoyani boshlab beradi, o’quvchilar esa davom ettiradi. Har bir o’quvchi o’z dunyoqarashidan kelib chiqqan holda yondashiladi. Agar pedagog ziyrak bo’lsa, shu birgina metod orqali o’z o’quvchilarning qiziqishlari, dunyoqarashlari, kerak bo’lsa kelajakda qanday kasbni egallashni xohlashlarini bilib oladi va pedagogic faoliyati davomida shunga ko’ra o’quvchilar bilan munosabat o’rnatadi.

Adabiyot darslarida ta’limdan ko’ra tarbiya ustunroq turadi. Xorij tajribasida yana shunday metod bor ekanki, adabiyot o’qitishda juda qo’l keladi.

“Thinkers meeting” “Allomalar yig’ini” deb ataladigan ushbu metod asrlar osha har bir davrda turli xil nomlar bilan qo’llanib kelingan. Bugungi kunda nisbatan mukammalroq variantini ingliz tilini o’qitishda ham ta’limiy ham tarbiyaviy jihatdan ijobiy natija bermoqda. Adabiyot o’qitishda ushbu metodni qo’llash o’quvchilarning o’g’zaki nutqini shakllantirishda, moziyga qiziqishlarini orttirishda yordam beradi.

Masalan, o’quvchilar orasida Alisher, Nodira, Abdulla, Mahmud, Bobur kabi ismli o’quvchilar bo’lishi mumkin. Ularga, umuman o’quvchilarga buyuk shaxslar haqida ma’lumotlar berib, o’z ismlariga moslab, hikmatli so’zlar topib kelishini vazifa tariqasida berilsa, o’quvchilarda qiziqish paydo bo’ladi. Vazifaga ma’suliyat bilan yondashadi. O’qituvchi rag’bat sifatida “sen ham kelajakda shunday buyuk shaxs bo’lishing mumkin” va shunga o’xshash e’tiroflar orqali o’quvchilar qalbida kelajakka bo’lgan ishonch, fanga nisbatan mehr va o’qituvchiga nisbatan hurmatni kashf etish mumkin. O’qituvchi uchun bundan ortiq mukofot bo’lmasa kerak.

Xorijda yuqoridagi metodlarga o’xshash metodlar ham juda ko’p. Ammo ularni bizning o’qitish tizimimizga moslab uni darslarda qo’llash o’qituvchidan yuksak darajadagi mahoratni talab qiladi. Mavzudan kelib chiqqan holda metodlarni tanlash maqsadga muvofiq bo’ladi.